

**QARSHI SHAHRI SHAROITIDA IQLIMLASHTIRILGAN  
KOELREUTERIA PANICULATA LAXM. NING BIOEKOLOGIK  
XUSUSIYATLARI**

**A.L.Raximov, D. B. Mirzayeva**

Qarshi davlat universiteti. Qarshi. O‘zbekiston

**ANNOTATSIYA**

*Ilmiy maqolada, mualliflar tomonidan sapindoshlar oilasiga mansub Koelreuteriya paniculata Laxm. - sovun daraxtining botanik tavsifi, bioekologik xususiyatlari, gullash biologiyasi, meva va urug‘ hosil qilishi, ekologik omillarga chidamliligi, Qarshi shahrining iqlimi yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Introdusent, Sapindaceae, sapindoshlar, issiqsevar, yorug‘sevar, atmosfera, meva, urug‘.*

Introdutsentlarning yangi sharoitda gullashi va urug‘ hosil qilishi adaptatsiyaning muhim ko‘rsatkichidir. Chunki o‘simliklarning ekologik omillarga bo‘lgan talabi yangi sharoitga mos tushgandagina ular gullaydi, urug‘ hosil qiladi va pirovardida avlod qoldiradi [1. 48 b].

Gulda urug‘ning shakllanishi yoki shakllanmasligi tashqi omillarning ta‘siriga, shuningdek, o‘simlikning urug‘ hosil qilish imkoniyatiga bog‘liq. Qator ilmiy tadqiqotlarda bu o‘z aksini topgan [2, 3].

Ma‘lumki mamlakatimizda turli iqlimlarda o‘sadigan o‘simlik va daraxtlar O‘zbekiston iqlimiga moslashtirilib kelinmoqda, maqsad vatanimizni yanada ko‘kalamlashtirish va o‘simliklardan turli yo‘nalishlarda foydalanish. Qarshi shahrining yozi issiq, quruq va davomli, qishi iliq. O‘lka shimol va sharq tomondan o‘ralgan. Bu esa arktika va Sibirdan keladigan sovuq havo massalarini yo‘lini to‘sadi. G‘arbiy qismi ochiq bo‘lib, mo‘tadil, dengiz va subtropik havo massalarining to‘siqsiz

kirib kelishiga imkon beradi. Shu sababli qishda yanvarning o‘rtacha harorati tekislik qismda  $0+3^{\circ}\text{C}$  iliq bo‘ladi. Yoz quyoshli bo‘lib uzoq davom etadi. Iyulning o‘rtacha harorati  $+28 +29^{\circ}\text{C}$ , Ba‘zan yozda eng yuqori harorat,  $+46^{\circ}\text{C}$  gacha kuzatiladi. Bunday iqlimda yaxshi o‘sib rivojlanayotgan, tadqiqotimiz obyekti *Koelreyteriya paniculata* Laxm. - sovun daraxti – Sapindaceae - sapindoshlar oilasi, Koelreuteria - kelreyretiya turkumiga kiradi. Nomi taniqli nemis botanigi Yozef Gottlib Kyolreyter sharafiga qo‘yilgan.

*K. paniculata* Laxm. tabiiy holda shimoliy va Markaziy Xitoy, Koreya va Yaponiyada toshloq hamda serquyosh qiyaliklarda o‘sadi. Madaniy holda ancha keng tarqalgan. Vatanida bo‘yi 15 m ga yetadi, Qarshi shahrida 8-12 m. Shox-shabbasi aylana shaklda, novdalari siyrak joylashgan va yuqoriga qaragan, yaxshi o‘sganlari osilib o‘sadi. Barglari murakkab, 24 sm gacha uzunlikda, toqpatimon, 8-15 dona, navbat bilan joylashgan.

Gullari 4 ta tojbargli, mayda, yorqin sariq rangda, tik o‘sadigan uzunligi 40 sm ga yetadigan siyrak shingilda to‘plangan. Mevasi 3 ta mevbargning birikishidan hosil bo‘lgan yumshoq etli ko‘sak, 3-6 sm. Dastlab yashil, keyin qizg‘ish qo‘ng‘ir rangda, urug‘i qora rangda (rasm).



*Koelreyteriya paniculata* Laxm. ning guli, mevasi va urug‘i.

Issiqsevar, yorug‘sevar, qurg‘oqchilikka va sovuqqa bardoshli,  $-25^{\circ}\text{C}$  ga chidaydi. Tez o‘sadi, ildiz bachkilari hosil qiladi. Shahar muhitiga, atmosferadagi zaharli gazlar, tuproq sho‘rligi va zararkunandalarga chidamli. Sertuk va qalin barglari bilan juda ko‘plab chiqindi gazlarni tutib qolish xususiyatiga ega.

Qarshi shahri sharoitida 12-15 maydan gullashni boshlaydi. May oyining 2-dekadasida yalpi gullaydi. Gullashni iyun oyining 1-dagadasida yakunlaydi. Mevasi sentyabr-oktyabr oylarida pishadi. Mevalari uzoq muddat daraxtda osilib turadi, qish davomida sekin-asta to'kiladi, o'simlikning manzaraliligini oshiradi. Urug'lari unuvchanligini 1 yil davomida yo'qotmaydi. 1000 dona urug'ning og'irligi 100-125 g keladi.

Urug'idan ko'paytiriladi. Ularni kuzda va bahorda ekish mumkin. Bahorgi ekish oldidan ular bir sutka davomida +50-60 °C haroratdagi suvda ivitilib, keyin 2-3 hafta oddiy sharoitdagi nam qumda saqlanadi. Shu usulda ekishga tayyorlangan urug'lar 15 kunda unib chiqadi. Urug' unuvchanligi 75-80 % ni tashkil etdi.

Shahar muhitiga, atmosferadagi zaharli gazlar, chiqindilar, zararkunandalar, hashoratlarga va tuproq sho'rligiga chidamli. Yirik va ko'p miqdordagi, sertuk va qalin barglari bilan chiqindi gazlarni tutib qolish xususiyatiga ega ekanligi kuzatishlarimiz davonida o'rganildi.

Qarshi shahrida uzoq yillardan buyon o'stiriladi va ko'plab urug' hosil qiladi. Uni manzarali bog'dorchilikda, sanoat korxonalarida hududlarida ko'plab o'stirish tavsiya etiladi.

#### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)***

1. *Yoziyev L.H., Boysunov B.X. Janubiy O'zbekistonga meliya daraxtini introduksiya qilish natijalari va istiqbollari. Toshkent, 2009. 48 b.*

2. *Левина Р.Е. Репродуктивная биология семенных растений. М.: Наука, 1981. 96 с.*

3. *Ашурметов О.А. Каршибаев Х.К. Семенное размножение бобовых растений в аридной зоне Узбекистана. Ташкент: Фан, 2002. 204 с.*